

YOSHLAR UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti

“Maktab menejmenti” yo‘nalishining 3-bosqich talabasi

@Moonlight7Education, +998906671012

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar uchinchi renessans poydevori ekanligi haqida so‘z boradi. Mavzu yuzasidan muayyan ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va yoshlar uchinchi renessans poydevori ekanligi bo‘yicha mavjud o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, yoshlar, inson qadri, Yangi O‘zbekiston.

Davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan strategik sa’y-harakatlar kun kelib Uchinchi Renessansga poydevor bo‘lishini jo‘shqin ma’ruzadan shuurimga oqib kirayotgan motivatsiyaning katta to‘lqinida angladim. Axir, mudroq jamiyatni, odamlarni uyg‘otishning o‘zi UYG‘ONISHning – RENESSANSning debochasi emasmi! Bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emasligi, bugungi yoshlar – kechagi yoshlar emasligini isbotlashga hojat qolmaganining o‘ziyoq zalvorli natija emasmi!

E’tibor qiling: Prezident biz haqimizda – yoshlar haqida alohida e’tibor va qat’iy ishonch bilan gapirdi. Ta’lim, dedi, matematika, kimyo, biologiya – fundamental fanlarni zo‘r o‘qitaylik, dedi, innovatsiyalarga yo‘l ochaylik, dedi. Yoshlarning ma’rifati, ma’naviyati bosh masalamiz, strategik vazifamiz, ustuvor yo‘nalishimiz, dedi. Deganlarining amaldagi isbotini ko‘ring: so‘nggi to‘rt yilda O‘zbekistonda 43 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi. Bu yil esa oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yigit-qizlar hujjat topshirdi. Bu degani yoshlarimizning ta’lim olishga motivatsiyasi naq 40 foizga oshdi, degani! Shu o‘quv yilidan yana bir yangi tizim joriy etildi: kam ta’minlangan oilalarda ulg‘ayayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida OTMda ular uchun davlat granti asosida 940 ta qo‘shimcha o‘rin ajratildi. Mana sizga iste’dodlarning intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlar!

Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatida ko‘rayotganining yaqqol tasdig‘i sifatida boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim islohotidir. Bu islohotlarning yutug‘i esa, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashini, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini ortirmoqda.

O'qituvchilar oyligini \$1000 miqdorigacha oshirish, ularning ijtimoiy mavqeini yuksaltirish masalasiga ham to'xtalib o'tdi Prezidentimiz. Haqiqatan ham, uzoqni ko'zlagan har qanday rejaning asosini sifatli ta'lim tashkil etadi. Ko'hna Xitoy mutafakkiri Konfutsiy: "Agar rejangiz bir yillik bo'lsa, sholi eking, o'n yillik bo'lsa, daraxt eking, yuz yillik bo'lsa – bolalaringizga ta'lim bering", deya bejiz ta'kidlamagan. Kelajakda kutilgan "hosil"ni yig'ish uchun O'zbekistonimizda hozirdan keng imkoniyatlar yaratilyapti, yoshlarni ilm-u ma'rifatga rag'batlantirish, ilm egalarini qadrlashga qaratilgan tizim shakllantirilyapti.

O'z navbatida, yoshlar ham shaxsiy rivojlanishi uchun motivatsiya manbaalarini o'zi topa bilishi kerak – u xoh kitob, xoh kinoasar, xoh sport yoki sayohat bo'lsin. Imkoniyat yaratilsa o'qiyman, deydi emas, har qanday vaziyatda ham bilim olish va rivojlanishga harakat qilaman deydi yigit-qizlarimiz safi kengayishi uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz kerak.

Biz yashab turgan shu muqaddas zaminda Uyg'onish – Renessans boshlangan paytlar Yevropa hali g'aflat uyqusida bo'lganini ko'pchilik yoshlar bilmasa kerak. Bu tarixiy haqiqatni Yevropaning yetuk olimlari tan olganini ham bilmaydiganlar bordir balki. Har qalay, atoqli nemis sharqshunosi Adam Mesning "Musulmon Renessansi", akademik Nikolay Konradning "Sharq Renessansi" konsepsiyasi osmondan tushgan emas. Agar "Die Renaissance des Islams" kitobini ushbu mavzudagi bosh manbaa deb hisoblaydigan bo'lsak, Adam Mesdek buyuk olim fundamental tadqiqotini yaratishda ulug' vatandoshimiz Beruniyning ilmiy merosiga tayanganidan faxrlanmay bo'ladimi?!

Mashhur Ma'mun akademiyasida kamolga yetgan Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi yuzlab allomalar Sharq uyg'onish davrining birinchi bosqichiga, Temuriylar davri tamaddunining yorqin vakillari —Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimlar ikkinchi yuksalish bosqichiga hissa qo'shgani qiyos qilinsa, Uchinchi Renessans vakillari bugungi islohotlarning mevalaridan bahra olgan Yangi O'zbekiston bolalari orasidan yetishib chiqsa, ne ajab!

Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni - mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi.

Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimi mazmunan va sifat jihatidan yangilanib bormoqda.

O‘zbekistonda ulug‘ allomalarimiz — Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, xalqimizning ardoqli adiblari nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Mamlakatimizning kelgusi jadal taraqqiyoti yosh iste’dod egalarini aniqlash, iqtidorli bolalarni saralash va o‘qitish tizimini takomillashtirish, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishni taqozo etmoqda. Prezident maktablari bu borada muhim qadam bo‘lib, har tomonlama yetuk, jamiyatimizga munosib kadrlarni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir quvonarli xabar shundaki, ilm yo‘lini tanlagan iqtidorli yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash maqsadida keyingi yildan boshlab magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshiramiz. Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlarga avvalo yangi Renessans poydevorining bunyodkorlari sazovor bo‘ladi,- deb ta’kidlagan davlat rahbarining ishonchi, yangi yil arafasida yoshlar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar yangi O‘zbekistonning Renessans yo‘lidagi yangi va ildam qadami bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T., 2012.
2. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: – “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j. – T.: – “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.